

**TOG‘ VA TOG‘ OLDI HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANINSHIDA TURIZIMNING AHAMYATI**

Normatov Sunnat Axmadovich

Shahrisabz davlat pedagogika
Instituti Geografiya kafedrası oqituvchisi

Qahhorov Echinbek Shuhrat o‘g‘li

Shahrisabz davlat pedagogika
instituti Geografiya kafedrası talabasi

**ЗНАЧЕНИЕ ТУРИЗМА В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ
РАЗВИТИИ ГОРНЫХ И ПРЕДГОРНЫХ РЕГИОНОВ**

Норматов Суннат Ахмадович

Преподаватель географического отделения Шахрисабзского
государственного педагогического института

Кахгоров Эчинбек Шухрат оглу

Студент географического отделения Шахрисабзского государственного
педагогического института

**THE IMPORTANCE OF TOURISM IN THE SOCIO-ECONOMIC
DEVELOPMENT OF MOUNTAIN AND FOOTHILL REGIONS**

Normatov Sunnat Akhmadovich

Lecturer, Department of Geography, Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Kakhgorov Echinbek Shukhrat oglu

Student, Department of Geography, Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Annotatsiya: Ushbu maqolada tog‘ va tog‘oldi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida turizmning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda turizmning hududiy iqtisodiyotga ta’siri, yangi ish o‘rinlarini yaratishdagi roli, infratuzilmani rivojlantirishga qo‘shgan hissasi hamda aholi farovonligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tog‘li hududlarning tabiiy va rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va madaniy merosni saqlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari turizmni rivojlantirish orqali tog‘ va tog‘oldi hududlarida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkinligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: flora va fauna infratuzilma, Miraki, urf-odat, sayyoh, loyiha, ekologiya, sport turizimi, rekiratsiya.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение туризма в социально-экономическом развитии горных и предгорных регионов. Освещено влияние туризма на экономику региона, его роль в создании новых рабочих мест, его вклад в развитие инфраструктуры, а также его значение в повышении

благосостояния населения. Также были рассмотрены вопросы эффективного использования природного и рекреационного потенциала горных регионов, обеспечения экологической стабильности и сохранения культурного наследия. Результаты исследования показывают, что добиться устойчивого социально-экономического развития горных и предгорных регионов можно за счет развития туризма.

Ключевые слова: инфраструктура флоры и фауны, Мироки, традиция, турист, проект, экология, спортивный туризм, отдых.

Abstract: This article analyzes the role and importance of tourism in the socio-economic development of mountain and sub-mountain regions. It highlights the impact of tourism on the regional economy, its role in creating new jobs, its contribution to the development of infrastructure, and its importance in improving the well-being of the population. Also, the issues of effective use of the natural and recreational potential of mountainous regions, ensuring ecological stability and preservation of cultural heritage were considered. The results of the research show that it is possible to achieve sustainable socio-economic development in mountain and sub-mountain regions through the development of tourism.

Keywords: flora and fauna infrastructure, Miraki, tradition, tourist, project, ecology, sports tourism, recreation.

Kirish: Bugungi zamonaviy iqtisodiyot rivojlangan zamonda iqtisodiyotning eng ajralmas va keng tarqalgan sohalaridan biri bu – turizm hisoblanadi. Tog‘ va tog‘oldi hududlari tabiiy landshaftlarning xilma-xilligi, toza havo, boy flora va fauna hamda noyob tabiiy manzaralari bilan ajralib turadi. Shu sababli bu hududlar turizmni rivojlantirish uchun juda qulay hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tog‘ hududlari turizmning muhim markazlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy rivojlanish, yangi ish o‘rinlari yaratish va hudud infratuzilmasini yaxshilashda katta rol o‘ynaydi.

Turizm tog‘ va tog‘oldi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. U mahalliy aholi bandligini ta‘minlash, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, transport va kommunikatsiya tizimini yaxshilashga yordam beradi. Shu bilan birga, turizm orqali hududlarning tabiiy va madaniy merosi keng targ‘ib qilinadi hamda ulardan oqilona foydalanish imkoniyati yaratilad. Tog‘ va tog‘oldi hududlarida ekologik turizm, sport turizmi, dam olish turizmi va rekreatsiya kabi turizm turlari keng

rivojlanishi mumkin. Bunday faoliyat nafaqat hudud iqtisodiyotini mustahkamlaydi, balki tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash va hududning barqaror rivojlanishini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Shu sababli tog' va tog'oldi hududlarining rivojlanishida turizmning ahamiyatini o'rganish, uning imkoniyatlari va istiqbollari tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Asosiy qism: Tog' va tog'oldi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishida turizm muhim strategik omillardan biri hisoblanadi. Bunday hududlar odatda tabiiy resurslarga boy, landshaftlari betakror, iqlimi toza va ekologik jihatdan nisbatan sof bo'lgani uchun turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Avvalo, turizm bu hududlarda yangi ish o'rinlari yaratadi. Mehmonxona xo'jaligi, transport, ovqatlanish shoxobchalari, gidlik xizmatlari va hunarmandchilik kabi yo'nalishlarda aholi bandligi oshadi. Bu esa mahalliy aholining daromadini ko'paytirib, turmush darajasini yaxshilaydi.

Turizm infratuzilmaning rivojlanishiga turtki beradi. Yo'llar, aloqa tizimi, elektr energiyasi, suv ta'minoti kabi muhim infratuzilma elementlari yaxshilanadi. Natijada, nafaqat sayyohlar, balki mahalliy aholi uchun ham qulay yashash sharoiti yaratiladi. Turizm hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta'minlaydi. Tog'li hududlarda ko'pincha qishloq xo'jaligi yoki chorvachilik asosiy faoliyat bo'ladi. Turizm esa qo'shimcha daromad manbai sifatida iqtisodiy barqarorlikni oshiradi va risklarni kamaytiradi. Bundan tashqari, turizm milliy madaniyat va an'analarni saqlashga ham xizmat qiladi. Sayyohlar qiziqishini oshirish maqsadida mahalliy urf-odatlar, milliy taomlar, hunarmandchilik mahsulotlari rivojlantiriladi va ommalashtiriladi. Bu esa madaniy merosni asrab-avaylashga yordam beradi.

Shu bilan birga, ekologik turizmni rivojlantirish orqali tabiatni muhofaza qilishga ham e'tibor kuchayadi. Chunki musoffo tabiat sayyohlarni jalb qiluvchi asosiy omillardan biridir.



1- Rasm Miraki turizm qishlog'ining ko'rinishi

Misol tariqasida Miraki xalqaro turizm markazi – O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanining Miraki qishlog'ida barpo etilgan yirik sayyohlik va rekreatsion kompleksdir. Ushbu loyiha O'zbekistonning turizm salohiyatini oshirish, ichki va tashqi sayyohlar oqimini ko'paytirish, shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish maqsadida tashkil etilgan. Loyiha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2024-2025-yillarda barpo etilgan bo'lib, umumiy qiymati 400 million AQSH dollariga teng bo'lgan 117 ta subloyihani o'z ichiga oladi. 240 gektar hududda mehmonxonalar, savdo majmualari, piyoda va velosiped yo'laklari hamda boshqa infratuzilma obyektlari barpo etildi. Majmua hozir ishga tushirib, 1700 dan ortiq doimiy ish o'rni yaratilgan.

Miraki xalqaro turizm markazi turizm, sog'lomlashtirish, madaniy meros va ekologik dam olish imkoniyatlarini birlashtirgan holda, xalqaro darajadagi sayyohlik maskani sifatida shakllantirilmoqda. Loyihada zamonaviy mehmonxonalar, kurort

zonalari, sport-infratuzilmalari, madaniy markazlar, ekologik yo‘laklar va sayyohlar uchun xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi rejalashtirilga

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tog‘ va tog‘oldi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida turizm hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan sohalardan biridir. U nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta‘minlaydi, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, turizm hududlarning tabiiy va madaniy salohiyatidan samarali foydalanish imkonini berib, ularni milliy va xalqaro miqyosda tanitadi. Eng muhimi, turizmni to‘g‘ri va barqaror yo‘lga qo‘yish orqali ekologik muvozanatni saqlash va kelajak avlodlar uchun tabiiy boyliklarni asrab qolish mumkin. Shunday ekan, tog‘ va tog‘oldi hududlarida turizmni rivojlantirish uzoq muddatli barqaror taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soliev A.S., Usmanov M.R. Turizm geografiyasi. - Samarqand, 2005
2. Toshev N.J. Qashqadaryo viloyati turizm aglomeratsiyalarini optimal joylashtirish uchun algoritmik yondashuv. -Qarshi, 2024.
3. Sunnat Normatov. Qashqadaryo viloyati iqtisodiy yuksalishida qishloq turizmining ahamiyati O‘zMU XABARLARI, 2024. 3/2/1, Tabiiy fanlar turkumi, B.230-232.
4. Bayqabilov Xusnudin Mardanovich., Normatov Sunnat Axmadovich. Turizm taraqqiyotida qishloq turizmining zamonaviy konsepsiyalari “Yangi O‘zbekistonda milliy turizm istiqbollari ” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Shahrisabz, 2024-yil, 12-iyun, -B.128-133.
5. Normatov S.A. Prospects Of Rural Tourism Development In Kashkadarya Region Dictionary Meaning and Historical Geographical and Linguistic Interpretation of the “Capital”Genius Journals Publishing Group, Brussels, Belgium In volume 16 of Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching (EJLAT), Dekember, 2024, Pg 60-63.
6. Safarov I. B., Toshquvvatov I. T. Recreational and touristic opportunities of uzbekistan’s mountains //экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-1. – С. 303-312.